


KORXONA VA TASHKILOTLARNING INNOVATSION FAOLIYATI

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar nafaqat korxonalarda ishlataladigan texnika va texnologik jarayonlarni yangilashni, balki boshqaruv va hisobini tashkil etishda innovatsion yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni baholashning amaliyotda qo'llaniladigan ayrim jihatlarini tadqiq etish katta ahamiyatga ega.




Quyidagi grafikda so'nggi yillarda o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxona va tashkilotlar dinamikasi keltirilgan.

1-grafik: O'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxona va tashkilotlar soni (2010-2017 yillar)




Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxona va tashkilotlar soni 2010 yildan 2017 yilga qadar 7,5 barobarga ko'payib, 289 tadan 2171 taga yetdi. Jumladan birinchi marta innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarishni o'zlashtirgan korxonalar soni 1007 taga ko'paydi.

2-grafik: Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi va xarajatlari dinamikasi (2010-2017 yillar)



Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi 2017 yilda 18543,3 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Ushbu ko‘rsatkich 2016 yilga nisbatan 1,7 barobar, 2008 yilga nisbatan 14 barobarga ko‘paygan. Innovatsiyalarga xarajatlar 2008 yilga nisbatan 8 barobarga, 2016 yilga nisbatan 1,6 foizga kamaygan.

3-grafik. 2017 yilda o‘z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlari, xizmatlar hajmi (QQS va aksizsiz)



2017 yilda o‘z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlari, xizmatlar hajmining asosiy qismi Toshkent shahriga (38,7 foizi), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (21,2 foizi), Toshkent viloyati (6,4 foiz) va Andijon viloyatiga (20,3 foizi) to‘g‘ri kelmoqda, qolgan 13,4 foizi respublikaning boshqa viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

1-jadval: Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar, mlrd.so‘m (2010-2017 yillar)

	2010y.	2011y.	2012y.	2013y.	2014y.	2015y.	2016y.	2017y.
--	--------	--------	--------	--------	--------	--------	--------	--------

Texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar 264,4 372,6 311,9 4634,2 3757,4 5528,3 2571,4 4162,3


shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo‘yicha:

tashkilotning o‘z mablag‘lari 184,3 263,2 213,4 2501,5 1381,5 1251,8 1180,0 2956,0

xorijiy kapital	48,3	24,9	39,9	1228,7	32,3	156,6	314,9	799,1
tijorat banklari kreditlari	30,0	63,7	26,8	533,5	262,5	280,1	157,3	88,4
boshqa mablag'lar	1,8	20,9	31,7	370,6	2081,0	3839,7	919,1	318,8

2010 yilda innovatsiyalar asosan tashkilotning o‘z mablag‘lari hisobidan (69,7 foizi) moliyalashtirilgan. 2014 yildan boshqa mablag‘lar hissasi (55,4 foiz) oshgan. 2017 yilda tashkilotning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish 2010 yilga nisbatan 16,4 barobar oshgan.

4-grafik: 2017 yilda moliyalashtirish manbalari bo‘yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar



2017 yilda texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlarning 71,0 foizi (2956,0 mlrd.so‘m) takilotning o‘z mablag‘lari hisobidan, 19,2 foizi (799,1 mlrd.so‘m) xorijiy kapital, 2,1 foizi (88,4 mlrd.so‘m) tijorat banklari kreditlari, 7,7 foizi (318,8 mlrd.so‘m) boshqa mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan.


2-jadval: Joriy qilingan innovatsiyalar soni (2017 yil)

Jami	o‘z kuchi bilan	Shu jumladan tadqiq qilinganlar:				boshqa tashkilotlar tomonidan	
		boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda	ulardan :				
			ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda	oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda			
Texnologik innovatsiyalar	1946	1786	72	42	20	88	
shu jumladan:							

mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar	1372	1279	37	22	7	56
jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar	574	507	35	20	13	32
Marketing innovatsiyalar	62	55	-	-	-	7
Tashkiliy innovatsiyalar	38	29	6	6	-	3


2017 yilda 975 ta korxona va tashkilotlar tomonidan 1946 turdag'i texnologik innovatsiya joriy etildi. Joriy qilingan texnologik innovatsiyalarning 61,6 foizi (1198 tasi) kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keladi.

5-grafik. Innovatsiya joriy qilgan tashkilotlar va innovatsiyalar soni (2017 yil)



Respublika bo'yicha 2017 yilda xar bir innovatsion faol tashkilot o'rtacha 2 tadan innovatsiya joriy qildi. Jumladan xar bir innovatsion faol tashkilotga Andijon, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida o'rtacha 3 tadan innovatsiya, Buxoro, Navoiy, Namangan, Toshkent, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida o'rtacha 2 tadan innovatsiya, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Jizzax, Surxondaryo va Sirdaryo viloyalarida o'rtacha 1 tadan innovatsiya joriy qilingan.

6-grafik. 2017 yilda o‘z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmining innovatsiyalarni o‘zlashtirilgan muddatlari bo‘yicha taqsimlanishi, foizda



2017 yilda o‘zlashtirilgan innovatsiyalar jami ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmining 15,6 foizini (2899,9 mlrd.so‘m) tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich eng yuqori bo‘lgan Farg’ona viloyatida 62,9 foizni (259,6 mlrd.so‘m), Surxondaryo viloyatida 50,4 foizni (40,2 mlrd.so‘m) tashkil qilgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatlarida bo‘lsa ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlarning katta qismi (mos ravishda 99,3 foiz hamda 92,9 foiz) 2015-2016 yillarda o‘zlashtirilgan innovatsiyalar hissasida to‘g‘ri kelgan.